

Qatog'on qurbonlarning xotirasi muqaddasdir.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadiryati, tarixini bilishga, o'zligini anglashga, qiziqishi ortib bordi. Bu tabiiy hol odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, vatanning tarixini bilishni istaydi. Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, yani bizning vatanimiz, nafaqat, sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan.

Diniy va dunyoviy ilimlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rk-u fayzni, mahobatini yo'qotmagan asor-u atiqalarimiz, qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, xunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi.

Beshavqat davrsinovidan omon qolgan, eng qadimiy tosh yozuvlar bitiklardan tortib bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozmalarni uchratishingiz mumkin. O'z-o'zidan shunday savol tug'iladi. Bu qo'lyozmalar bizgacha qanday yetib keldi? Bunga javob topish uchun esa o'tmishga bir nazar tashlaylik. O'tmishga bir nazar tashlash uchun esa poytaxtimiz markazida qad rostlagan "SHahidlar maydani"ni borib ko'rish lozim deb o'ylayman. Zeroki qatog'on qurbonlarining xotirasi muqaddasdir. Buning birgina misoli sifatida Prizentimiz I.A.Karimovning so'zlarini yodga olsangiz kifoya. "Jafokash xalqimiz asrlar davomida ne-ne sinovlarni mashaqatli kunlarni ko'rmadi. O'z ozodligi erkinligi tinch hayot yo'lida kurashib behisob qurbonlar bergan. Ota bobolarimiz jasorati tarix xotiramizdan hech qachon o'chmaydi" deb aytganlar. SHunday ekan shahidlar maydaniga kirib borar ekansiz sizda yana bir savol paydo bo'ladi. Bu maydonning nomi nima uchun aynan shahidlar maydoni? Deb o'ylaysiz va yanada ichkarilar ekansiz ko'zlaringiz yanada quvnaydi sababi u

yerdagi bir-biridan chiroyli gullar,dov-daraxtlar va eng asosiysi binolar va ustinlarning barchasi o`zimizning sharqona naqishlarimiz bilan o`yib bezak berilgan. Men ham bu maydon uzra naqshinkor eshiklardan kirib borar ekanman hayolimda huddi o`sha zamonga tushib qolganday bo`ldim. Ichkariga kirar ekansiz ko`zlaringiz beihtiyor 3ta honaga tushadi. Bir qarashda insonni o`ziga jalb etuvchi xonalarning o`ziga xosligi bor. Ular orasida 3-xona alohida e`tiboringizni tortadi, chunki qolgan ikki xona nima uchun qorong`u-yu 3-xona yorug` shu kabi o`y-hayollar girdobida nima uchun xonalarning qorong`uligini usha yerda ishlayotganlardan so`radim ularning aytishicha; 2ta xonaning qorong`uligi qora kunlardan dalolat bersa, 1ta yorug` xona esa Mustaqilligimizdan keying yorug` kunlarimiz ekan. Bu xona har bir kishini o`z-o`zidanolg`a qadam tashlashga undaydi. Xonadagi buyumlarga e`tibor qaratar ekansiz to`ponchadan tortib turli kitoblarga ham ko`zingiz tushadi. Xona bo`ylab yurar ekanman bir narsa meni o`ziga jalb qildi. Toshkentda 1892 yil 23 iyunda yuz bergan va tarixda vabo qo`zg`oloni nomini olgan isyon ota bobolarimizning mustamlakachilar zulmiga qarshi kurash olib borgan. Kurashda ne ne ota bobolarimizning begunoh insonlarning qoni to`kilgan. Minglab ayollar beva qolgan. Chaqaloqlar esa erta yetim qolgan. Onalarning ko`z Yoshi esa olamni larza kelturgudek bo`lgan. Xonaga kirar ekansiz xonaning o`rtasida turgan qop-qora mashina sizni beehtiyor o`ylantiradi. Mashinaga nazar tashlar ekansiz rangi nima uchun qora yu? G`ildiraklarning rangi esa nima uchun qizil deysiz. U davrda bu mashina barchaga birdek tanish edi. Xuddi o`zlari biz el yurt manfaati uchun qilyapmiz deydiyu, ammo uning asl maqsadi esa begunoh vatandoshlarimizni birma-bir qatl ettirishbo`lgan. Mashinaning g`ildiruqlari shuning uchun qizil qon. Adabiyot va san`at namayondalari A. Qodiriy, M. Behbudiy, M.Qori, Fitrat va Cho`lpon tavallolarni ham qurbon qilgan. O`sha davrda bolalarni ziyoli bo`lib yetishi uchun 1900 - 1910 yillarda yangi usul makatabi ochildi, ammo bu maktab uzoqqa cho`zilmadi. Turkiston muxtoriyati tomonidan berkitildi. Lekin shunga

qaramay M. Behbudiy tomonidan O'zbekistonlik 67 nafar yoshlar Germaniyaga borib o'qib kelganlar. Ammo talabalar ichida Sattor Jabborov, Hayrinso Mahmudova, Sobir Muhammad, Mayram Sultonmurodova, Gulshan Rahimov va To'lagan Mo'minovlar ham qatag'on qilingan. Tarixiy ildizni izlagan odam albatta bir kun turli xil savollarga duch keladi. Tarixiy xotirasi bor inson irodali insondir. O'zbekiston mulki va boyligi bo'lgan paxta ishibo'yicha ham ko'p insonlar qurbon bo'lgan. Bular Vahobjon Ismonov, To'ra Shodiyevlar kabilarning begunoh qoni to'kilgan. 1916-yilda Turkiston gazetasida "Bizlar mardikorlikka bormaymiz" shiori ostida qo'zg'alonchilar Andijonda, Qo'qonda, Jizzaxda, Marg'ilonda qo'zg'alon ko'tarishga majbur bo'lishgan. Qo'zg'alonda Vali Jumayev, Mavlon Sadullayev va Komil Ahmidovlar ishtirok etishgan. 1910-yil 18-iyulda Jizzax shahrida eng yirik qo'zg'alon bo'lib o'tdi unda ayollar bolalar ham ishtirok etishgan Turkiston o'lkasi qo'zg'alonini bostirish uchun Chor Rossiyasi tomonidan 14ta batrallvvyon askar, 33ta Kazak xarbiy bo'linmasi 42ta to'p va 69ta plimot yuborildi. Qo'zg'alonda ishtirok etgan insonlar 3000dan ortiq. Mahalliy aholi vakillari javobgarlikka tortilgan. 1588 kishi sud qilinib 347 nafari o'lim jazosi, 104 nafdari surgunpga jo'natilgan va 282 nafari qamoq jazosini olgan. O'zbek tom manoda bunyodkordir unga birovning yeri kerak emas. Mobodo qo'lga qurol olgudek bo'lsa faqat o'zini himoya qilish uchun qurol oladi. Mana shu qatag'on qurbonlari ham o'zini himoya qilish bilan bir qatorda el-yurti, vatani, or-nomusini himoya qiladi. Zotan ularning nomlari abadiydir. Ma'naviyatni tiklashi tug'ulib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay boshini baland ko'tarib yurish uchun insonga albatta tarixiy xotira kerak. Shundagina uyo'ldan ozmay o'z oldiga to'g'ri va aniq maqsad qo'ya oladi. Axir xalqimizda tarixni bilmay turib kelajakni qurib bo'lmaydi deyдилar. Shuning uchun shaxid ketgan insolar xotirasi abadiy va doimo yodimizdadir. U insonlar qilgan ishlar esa kelajakka o'rnak va yanada mustaxkam poydevor bo'la oladi.

Jo'rayeva Mohichehra

403-guruh